

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINING
NAZARIY VA TASHKILY-IQTISODIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830637>

Tolibov G‘olib Ko‘klamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

Telefon +998936537171

Annotatsiya: *ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur‘atlarda rivojlantirish omillaridan biri xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta‘minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon‘yunkturasi o‘zgarishlariga tez moslasha olish, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta‘minlash va daromad manbalarini yaratish, o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri – bu ularning tashqi iqtisodiy faoliyat, ya‘ni eksport va importdagi ishtirokidir. O‘zbekiston Respublikasining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsad qilib belgilangan tijorat banklarining bu jarayondagi ishtiroki va faolligini rivojlantirish to‘g‘risida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *daromad,eksport, import, xususiy tadbirkorlik,bozor konyunkturasi,bandlik, tashqi savdo,eksport divesifikatsiyasi, samaradorlik*

Kirish: Respublikamizda eksportni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, uning hajmi barqaror o‘shishini ta‘minlash va tarkibini takomillashtirish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda xususiy tadbirkorlikning rolini har tomonlama oshirish, eksportchi korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, milliy mahsulotlarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlash va valyuta tushumlarini ko‘paytirish hozirgi kunda mamlakatimizda hal qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb masalalardan sanaladi. Bunda birinchi navbatda, tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, ayniqsa tijorat banklarining bu jarayondagi ishtiroki va faolligini rivojlantirish zarur. Shulardan kelib chiqib tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirishning muhim omillaridan biri sifatida tijorat banklari rolini oshirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Tadbirkorlikning tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro savdo yo‘nalishlarida nazariy tadqiqotlar olib borgan xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlari jumlasiga I.V.Kokushkina, M.S.Voronin, E.V.Vavilova,

L.P.Borodulina, I.A.Hamedov, A.M.Alimov, J.J.Jalolov, G.G.Nazarova, N.Sirojiddinov, I.S. Hotamov⁹ va boshqalarni kiritish mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlarini faoliyati, jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatini bank kreditlari orqali moliyalashtirish masalalari J.M.Keyns, SH.Z.Abdullaeva, U.O'.Azizov, A.A.Omonov, T.M.Qoraliev, D.G'ozibekov, N.G'.Karimov., T.Boboqulov, U.A.Abdullaev, R.T.SHomurodov, I.R.Toymuxamedov, R.R.Tojiev, A.A.Azlarova, M.M.Abduraxmanova¹⁰ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash (taqqaslash), monografik kuzatuv usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri xususiy tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu soha bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga tez moslasha olish, yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi bandligini ta'minlash va daromad manbalarini yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish kabi xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevni ta'kidlashicha, "2030 yilga borib, O'zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin egallaydi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag'batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish ko'zda tutilmoqda"¹¹.

Rivojlangan mamlakatlarda xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning asosini tashkil etib, butun iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu mamlakatlarda kichik va xususiy tadbirkorlikning ulushi yalpi ichki mahsulotda (YaIM) 50-60 foizni, umumiy bandlikda 54-78 foizni va jami korxonalarda 97-99 foizni tashkil qiladi¹².

⁹ И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с.; Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2016. – 45 с.; Н.Сирожиддинов. Халқароо иқтисодиёт. 1-қисм: Ташқи савдо назарияси ва сиёсати. -Т.: Iqtisodiyot, 2019.-180 б.; Ҳамедов И.А., Алимов А.М. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари. Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси "Адабиёт жамғармаси" нашриёти, 2010.- 328 б.; Жалолов Ж.Ж. ва бошқалар. Ташқи иқтисодий фаолият асослари. Ўқув қўлланма. Т.: ДИТАФ, 2011. -156 б.; Назарова Г.Г. ва бошқалар. Жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув: тажриба ва амалиёт. Т.: ТДИУ, 2010.-224 б.; И.С. Хотамов ва бошқалар. Ташқи иқтисодий фаолият: ривожланиш асослари ва устувор йўналишлари. Оммабоп рисола. Т.ТДИУ, 2014.-56 б.

¹⁰ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. - М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с., Ш.З.Абдуллаева, У.Ў.Азизов. Банк иши. -Т.:Молия, 2019. -1024 б.; А.А.Омонов, Т.М.Қоралиев. Пул ва банклар -Т.: Молия, 2018.-464 б.; А.А.Азларова, М.М.Абдурахманова. Тижорат банкларининг актив ва пассивларини бошқариш. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт, 2019. -326 б.; Т.И.Бобоқуллов, У.А.Абдуллаев. Халқаро валюталар-кредит муносабатлари. -Т.:Iqtisod-Moliya, 2019. – 230 б.; Т.И.Бобоқуллов, У.А.Абдуллаев, Р.Т.Шомуродов. Монетар сиёсат. -Т.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 223 б.; И.Тоймухамедов Халқаро банк иши. Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисодиёт, 2019. - 176 б.; R.R.Tojiev. Халқаро валюталар-кредит муносабатлари. –Т.: Iqtisodiyot, 2019. -276 б.; Абдуллаев Ё. ва бошқ. Банк иши. Ўқув қўлланма. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. –533 б.;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning *lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi*. 2021 yil 6 noyabr. www.prezident.uz.

¹² Г.Саидова ва бошқ. Инсон таракқиёти тўғрисидаги маъруза. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 175 б.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra 2021 yilda kichik tadbirkorlikning mamlakatim yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) salmo‘g‘i 54,9 foizni (2020 yilda 55,5 foiz), umumiy eksportda 22,3 va importda 48,7 foizni tashkil etgan¹³.

Mamlakatimizda xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta‘minlay olmaymiz. Xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda, aholini ish bilan ta‘minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan mulkdorlar sinfining, ya‘ni o‘rta sinfnining shakllanishi va mustahkamlanishini ta‘minlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi O‘RQ-328-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq “Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir”¹⁴.

Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari sifatida (tadbirkorlik sub'ektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar e‘tirof etiladi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri – bu ularning tashqi iqtisodiy faoliyat, ya‘ni eksport va importdagi ishtirokidir. O‘zbekiston Respublikasining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da **xususiy sektorning eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsad qilib belgilangan**¹⁵.

Bugungi kunda mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va erkinlashtirishda uning asosiy qismiga, ya‘ni tashqi savdoni rivojlantirishga, eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish, ularda tarkibiy o‘zgartirishlar masalalariga hozirgi bosqichdagi ustuvor masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2021-yil yanvar-dekabr. Toshkent-2022.–1-2 b. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 maydagi O‘RQ-328-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni. www.lex.uz

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi IIФ-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

Korxonalarining barqaror rivojlanishida bozorlarga raqobatdosh va sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va shu asnoda ularning munosib daromad topishiga, farovonligining oshib borishida muhim ahamiyatga ega.

Muayyan bir mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni jahon bozorlariga eksportga chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar eng avvalo xalqaro savdo nazariyalari bilan bog'liq. Rossiyalik iqtisodchi olimlar I.V.Kokushkina, M.S.Voroninlarning fikricha: "Xalqaro savdo - xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi bo'lib, ancha murakkab va ko'p qirrali holat hisoblangani uchun uning turli ta'riflari mavjud. Umum e'tirof etilgan ta'rifga ko'ra xalqaro savdo dunyoning barcha mamlakatlari tashqi savdolarining yig'indisini ifodalaydi. Xalqaro savdo – bu muayyan mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi bo'lib, u tovarlar, ishlar va xizmatlarni mamlakatdan olib chiqish (eksport) va mamlakatga olib kirishdan (import) tashkil topadi¹⁶".

E.V.Vavilova va L.P.Borodulinalarning yondoshuvi bo'yicha: "Xalqaro savdo (international trade) – xalqaro tovar-pul munosabatlarining barqaror sohasi bo'lib, jahondagi barcha mamlakatlar tashqi savdolarining yig'indisidan tashkil topadi. "Xalqaro yoki jahon savdosi" termini shuningdek, yana quyidagi ma'nolarni ifodalash uchun ishlatilishi mumkin: 1) jahondagi barcha mamlakatlar savdosining umumiy hajmini; 2) sanoati rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar yoki biror kontinent, hududdagi mamlakatlar tashqi savdosining umumiy hajmini¹⁷".

E.Yu. Sidorova xalqaro savdoni mamlakatlarning chegaralar orqali tovarlar va xizmatlar bilan ayirboshlash jarayoni deb qaraydi. Uning fikricha, turli mahsulotlarni ishlab chiqarishda mamlakatlararo raqobat ustunliklaridagi (yoki nisbiy ustunliklardagi) farqlar xalqaro mehnat taqsimotiga asos yaratadi va mamlakatlar orasidagi eksport hamda import oqimini belgilab beradi¹⁸.

Mutaxassislarining fikrlariga qaraganda, xalqaro savdo mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga borgan sari kuchli ta'sir ko'rsatib bormoqda. Birgina ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda xalqaro savdo tez sur'atlar bilan rivojlanib, uning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari jahon bo'yicha ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlaridan 1,5 marta ortiq bo'ldi. Natijada, bir tomondan, tashqi savdo iqtisodiy taraqqiyotning kuchli omili sifatida yuzaga chiqmoqda, ikkinchi tomondan esa, mamlakatlarning xalqaro tovar ayirboshlashdan qaramligi darajasi ham sezilarli darajada oshdi¹⁹.

Xalqaro savdo turli mamlakatlar o'rtasida tovarlar (ishlar, xizmatlar) ayirboshlash bilan bog'liq munosabatlarni anglatib, u mamlakatlarning o'zaro nisbiy va taqqoslama afzalliklariga asoslanadi.

¹⁶ И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2007. -11 с.

¹⁷ Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2006. – 45 с.

¹⁸ Е.Ю.Сидорова. Международная торговля: курс лекций. Учебное пособие. –М.: Экзамен, 2006. – 8 с.

¹⁹ Н.А. Миклашевская, А.В.Хлопов. Международная экономика. Учебник. – М.: Дело и сервис, 2004. – 22 с.

Avvalom bor mamlakatlar o'zlaridagi ichki iste'moldan ortiqcha raqobatbardosh mahsulotlarni xalqaro bozorlarda sotish orqali valyuta ishlab topib, o'zlarida ishlab chiqarilmaydigan tovarlarni xarid qilishga harakat qiladilar. Turli mamlakatlar turli pul birliklarini ishlatishlarini e'tiborga olsak, xalqaro bozorlarda amalda bo'lgan valyutalarni ishlab topish uchun mahsulotlarni eksport qilishga to'g'ri keladi.

“Eksport” tushunchasiga ta'rif berishda turli manbalarda bir-biriga yaqin va o'xshash yondoshuvlar uchraydi. Xususan, Rossiyalik iqtisodchi olimlar E.V.Vavilova L.P.Borodulinalarning ta'rif berishicha: “Eksport deganda tovarlar va xizmatlarni tashqi bozorlarda sotish uchun mamlakatning milliy chegarasi orqali olib chiqish tushuniladi. Eksport predmetlari bo'lib mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar (xizmatlar) hamda tashqaridan mamlakatga olib kirilib, qayta ishlab tashqariga sotishga mo'ljallangan tovarlar hisoblanadi. Ekportning alohida shakli sifatida reeksport, ya'ni mamlakatga oldin olib kirilgan tovarlarni qayta ishlamasdan tashqariga chiqarib sotish yuzaga chiqadi²⁰”.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Shodmonov va U.V.G'ofurovlarning fikricha, “eksport – bu tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovar mamlakatdan tashqariga chiqariladi²¹”. Boshqa bir iqtisodchi olimlarimiz A.O'lmasov va A.Vahobovlarning ta'rificha, “eksport – bu tovarlarni mamlakat tashqarisiga chiqarib sotish²²”.

“Eksport” so'zi lotin tilidagi “exporto” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tarjimada “chiqaraman” degan ma'noni anglatadi. Odatda bu so'z zamirida bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga tovar-moddiy qimmatliklar, kapital, bilim, ishchi kuchi va boshqalarni olib chiqish tushuniladi²³.

O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi 77-II-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonunning 11-moddasiga muvofiq: “Tovarlarning O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan ularni qayta olib kirish to'g'risidagi majburiyatni olmasdan olib chiqib ketilishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tovarlar eksportidir”²⁴.

Shuningdek, mazkur qonunda ishlar va xizmatlar eksporti tushunchasiga ham ta'rif berilgan: “O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan xorijiy davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish), ularning bajarilish (ko'rsatilish) joyidan qat'i nazar, ishlar (xizmatlar) eksportidir”.

Tovarlari eksporti odatda moddiy-buyumlashgan shakldagi mahsulotlarni jahon bozorlarida sotishni ifodalasa, ishlar (xizmatlar) eksporti xorijiy mijozlarga moddiy-

²⁰ E.V.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля. Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2006. – 39 с.

²¹ Ш.Ш.Шодмонов, У.В.Убайдуллаев. Иқтисодий назарияси. Дарслик. –Т.: Иқтисод-Молия, -2010. - 610 б.

²² А.Ўлмасов, А.Ваҳобов. Иқтисодий назарияси. Дарслик (тўлдирилган ва қайта ишланган нашри). –Т.: Иқтисод-Молия, 2014. – 392 б.

²³ Пособие по экспортной деятельности (для начинающих экспортеров Узбекистана). ПРООН, Торгово-промышленная палата Узбекистана. –Ташкент, 2007. – 4 с.

²⁴ O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi 77-II-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”gi Qonuni. www.lex.uz

buyumlashgan shaklga ega bo'lmagan, ammo tegishli shartnoma asosida ma'lum haq evaziga amalga oshiriladigan ishlar va xizmatlarni ko'rsatishni nazarda tutadi.

Mahsulot eksportining iqtisodiy samaradorligi shu bilan aniqlanadiki, mazkur mamlakat ishlab chiqarishning milliy xarajatlari jahon xarajatlaridan past bo'lgan mahsulotlarni chetga chiqaradi. Bunda eksportda olinadigan yutuq hajmi mazkur tovar milliy va jahon narxlarining nisbatiga, mazkur tovarning xalqaro aylanmasida ishtirok etuvchi mamlakatlarning mehnat unumdorligiga bog'liq.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahsulotlarni tashqi bozorlarga eksport qilishning mamlakat va milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun quyidagi afzallik tomonlari mavjud:

- eksport yalpi ichki mahsulotini shakllantirishning muhim manbalaridan biri sifatida mamlakat iqtisodiy salohiyati va taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sanaladi;

- tovar ishlab chiqaruvchilar uchun o'z mahsulotlarini eksport qilish valyuta ishlab topish, sotishdan pul tushumlari va foydani ko'payishtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochadi;

- jahon bozorlari, ayniqsa Evropa Ittifoqi kabi rivojlangan mamlakatlar bozorlarida mahsulotlarning iste'mol, sifat va ekologik xavfsizlik jihatlariga qo'yiladigan texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya va ekologiya standartlari hamda talablari juda yuqori bo'lib, bu holat milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z mahsulotlarining iste'mol xususiyatlari, sifati va ekologik xavfsizligini muntazam oshirib borishga majbur qiladi;

- jahonning turli mintaqalaridagi bozorlarda faoliyat ko'rsatish iqlimdagi xilma-xillik va mavsumiylikka bog'liq holda mahsulot turlari hamda ishlab chiqarishni doimo diversifikatsiya qilishga yo'l ochadi;

- ichki bozorda yilning ma'lum mavsumida o'z mahsulotini sotishi mumkin bo'lgan tovar ishlab chiqaruvchilar iqlimdagi xilma-xillik evaziga jahon bozorlarida yil davomida mahsulot sotishga erishishlari mumkin;

- davlatlararo va firmalararo tovar aylanmasi hamda kooperatsion-ishlab chiqarish aloqalari kengayadi;

- ichki bozor to'yingan sharoitda ortiqcha mahsulotlarni eksportga chiqarish jahon bozorlarining bir qismini egallash orqali sotuvlar hajmini va daromadlarni oshirishga, ishlab chiqarish hajmini oshirish evaziga ta'minlanadigan "ko'lam samarasi" mahsulotlar tannarxini pasaytirishga, sotilmay turib qoladigan mahsulotlarni yo'qotishdan keladigan zararlardan saqlashga imkon beradi;

- xalqaro savdo ishlab chiqarish resurslarini optimal taqsimlashga yo'l ochib, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytiradi va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltiradi;

- milliy tovar ishlab chiqaruvchilar uchun jahonning kapital, tovar, xomashyo-resurs, moliyaviy, mehnat, ilmiy va axborot bozorlariga keng yo'l ochiladi;

- jahon bozorlarida kuchli raqobat muhitining mavjudligi tovarlar assortimenti va sifatining yaxshilanishiga, qo‘shimcha servis xizmatlarining rivojlanishiga olib keladi;
- xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarning kengayishi o‘z navbatida infratuzilmalar hamda kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishiga olib keladi;
- milliy bozor sig‘imi kichik bo‘lgan mamlakatlar uchun yangi bozorlarga chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi;
- milliy va xorijiy tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashishga, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashga hamda ilg‘or texnologiyalar va innovatsion g‘oyalardan birgalikda foydalanishga yo‘l ochadi.

Eksport diversifikatsiyasi, ya'ni xorijga sotilayotgan tovarlar va xizmatlar ro‘yxatining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo‘lishiga barham berilishi mahsulotlar eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytiradi, eksport hajmining barqaror bo‘lishini ta'minlaydi.

Hozirgi paytda bozor talabini tezkorlik bilan o‘zgartirishni qabul qila oladigan, harajatlarni qoplashga qodir bo‘lgan, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqaradigan, yangi ilg‘or texnologiyalar joriy etayotgan turli xil maʼsuliylati cheklangan jamiyatlar ko‘rinishidan yangi korxonalarni, xususiy qo‘shma korxonalarni tashkil etish evaziga yangi ishchi o‘rinlarini ko‘paytirish ishlarini yanada takomillashtirish taqozo etiladi. Eksportni rivojlantirishda maʼsuliylati cheklangan jamiyatlarning ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. Bir so‘z bilan aytganda, xorijiy investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish orqali mamlakat iqtisodiyoti o‘shishiga hissa qo‘shish, hamda uning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi fikr-mulohazalar asosida xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror sur‘atlar bilan rivojlantirish, eksport salohiyatini mustahkamlashda xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Ayni paytda, mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy o‘zgarishlarga erishish yo‘lida ta'sirchan chora-tadbirlar amalga oshirilib, salmoqli natijalar qo‘lga kiritilmoqda. Mamlakatimizda xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o‘rin egallaydi. Tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan mulkdorlar sinfining, ya'ni o‘rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi.

1. И.В.Кокушкина, М.С.Воронин. Международная торговля и мировые рынки. Учебное пособие. –СПб.: Техническая книга, 2017. -11 с.; Е.В.Вавилова ва Л.П.Бородулина. Международная торговля Учебное пособие. –М.: Гардарики, 2016. – 45 с.; Н.Сирожиддинов. Халқароо иқтисодиёт. 1-қисм: Ташқи савдо назарияси ва сиёсати. -Т.: Iqtisodiyot, 2019.-180 б.; Ҳамедов И.А., Алимов А.М. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари. Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси “Адабиёт жамғармаси” нашриёти, 2010.- 328 б.; Жалолов Ж.Ж. ва бошқалар. Ташқи иқтисодий фаолият асослари. Ўқув қўлланма. Т.: ДИТАФ, 2011. - 156 б.; Назарова Г.Г. ва бошқалар. Жаҳон иқтисодиётига интеграциялашув: тажриба ва амалиёт. Т.: ТДИУ, 2010.-224 б.; И.С. Хотамов ва бошқалар. Ташқи иқтисодий фаолият: ривожланиш асослари ва устувор йўналишлари. Оммабоп рисола. Т.ТДИУ, 2014.-56 б.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning *lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi*. 2021 yil 6 noyabr. www.prezident.uz

3. А.Ўлмасов, А.Ваҳобов. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик (тўлдирилган ва қайта ишланган нашри). –Т.: Иқтисод-Молия, 2014. – 392 б.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘isida”gi ПФ-60-sonli Farmoni. www.lex.uz

5. Ш.Ш.Шодмонов, У.В.Убайдуллаев. Иқтисодиёт назарияси. Дарслик. –Т.: Иқтисод- Молия, -2010. - 610 б.